



# JANUBIY SURXONDARYO O'ZBEK SHEVALARI MAQOLLARINING HOSIL BO'LISHIDA BILINGVIZM HODISASI

Mansur Xamidov

*TerDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini  
o'qituvchisi, erkin tadqiqotchi*

**Annotatsiya:** *Bu maqolada Janubiy Surxondaryo hududida yashab kelayotgan o'zbek va boshqa millat vakillari nutqida uchrovchi paremalarning bir-biriga ta'sirir va hosil bo'lishdagi o'ziga xosliklar yoritib berilgan.*

**Annotation:** *In this article, the peculiarities of the formation and influence of the Uzbeks and representatives of other nationalities living in the Southern Surkhandarya region are highlighted.*

**Аннотация:** В данной статье выделены особенности формирования и влияния узбеков и представителей других национальностей, проживающих в Южной Сурхандарьинской области.

**Kalit so'z va tushunchalar:** *Bilingvism, dialektal paremalar, sabab va mohiyat*

**Ключевые слова и понятия:** *Двуязычие, диалектные параметры, причина и сущность.*

**Key words and concepts:** *Bilingualism, dialectal parameters, cause and essence.*

O'zbekiston ko'p millatli mamlakat. Biz tadqiq etgan hududlarda tojik va o'zbek xalqlarining tillari bir-biriga ta'sir etib, bir tildan ikkinchi tilga lingvistik vositalar ko'chganini kuzatishimiz mumkin. Biz buni "bilingvism" hodisasi sifatida e'tirof etamiz. Bilingvism lotincha so'z bo'lib, "bi" – ikki, "lingua" – til, ya'ni ikki tillilik ma'nosini bildiradi.

Bolaligidan ikki tilda bemalol muloqot qila olgan kishilarni ham bilingvistlar deb ataymiz, aslida ham bu atama ko'proq ikki tilli muhitda yashash natijasida shakllangan bilingvismni ifodalaydi. Shu sababdan ham bilingvismni avvalo sun'iy va tabiiy ko'rinishlarga ajratib olamiz.

1. Sun'iy bilingvismda inson hayotining ma'lum bosqichiga kelib ikkinchi til qo'shiladi va xuddi ona tilidek o'zlashtiriladi.

2. Tabiiy bilingvist kishi esa erta yoshlaridanoq ikkita tilni birdek o'zlashtirib boradi.

Muhit ta'sirida shakllangan bilingvism tushunchasi ham ikkiga bo'linishini eslatib o'tish kerak:

1. Individual bilingvistlar – oilaviy sharoit yoki shaxsiy xohish asosida ikki tillilik bilan ulg'aygan kishilar.

2. Ijtimoiy bilingvistlar – mamlakatdagi mavjud vaziyat yoki an'analar ta'sirida ikkita tilni bir xil o'zlashtirgan kishilar.

Individual bilingvistlar ota-otasi ikki xil tilda gaplashadigan oilada ulg'ayish natijasida har ikki tilni birdek o'zlashtiradi. Bunda ota-onalik millat egasi bo'lishi shart emas. Biror chet tilini mukammal bilgan insonlar bemalol farzandlarini ikki tilli qilib tarbiyalay olishi mumkin.

Ijtimoiy bilingvism esa mamlakatda birdan ortiq davlat tili mavjud, tarixan biror davlatning mustamlakasi yoki vassali bo'lgan jamiyatlarda shakllanadi. Asosan, Yevropa davlatlari orasida bu hol ko'proq kuzatiladi. Masalan, Shveysariyada 4 ta rasmiy davlat tili mavjud bo'lib, bunday sharoitda insonlar kamida ikkita tilni birdek o'zlashtirishadi.

Ikkita tilni inson qay darajada o'zlashtirishiga ko'ra bilingvism yana 3 turga bo'linadi:

1. Koordinativ yoki muvozanatlashgan bilingvism. Bunda inson ikki tilni alohida kontekstda o'zlashtiradi. Bunday odamlar miyasida ikkala til uchun alohida so'z boyligi, alohida grammatik tushunchalar shakllangan bo'ladi. So'zlashganda ikki tilning tushunchalari bir-biri bilan aralashib ketmaydi.

2. Sub-koordinativ yoki muvozanatlashmagan bilingvism. Bunda birinchi til ikkinchisiga qaraganda ustunlikka ega bo'ladi. Ya'ni ikkinchi til ona tili orqali o'zlashtirilgan bo'ladi. Masalan, ikkinchi tilda biror so'zni eshitganda shu so'zning ona tilidagi ekvivalenti birdan xayolga keladi.

3. Aralash bilingvism. Bunday bilingvistlar ikki tilni bir kontekst ichida tushunib, qo'llab keta oladi. Bunday kishilarning miyasi qaysi tildan foydalananayotgani haqida o'ziga hisob berib o'tirmaydi. Odatda aralash bilingvism oilada, ikki tilda so'zlashuvchi ota-onalik sababli go'daklik paytidayoq rivojlanadi.

Bizning o'rganishlarimiz natijasida esa bilingvism variantdoshlikni va o'z navbatida transformatsiyani yuzaga keltiardi. Buning sabablari esa quyidagicha:

*Bir joydan ikkinchi joyga ko'chish.* Odatda o'zbek xonardonlarida kenja farzand ota-onasi bilan oilada qoladi. To'ng'ich va undan keyingi farzandlar alohida uy-joy (qozoni bo'lak/ /boshqa) qilib chiqib ketishadi. Oila boshi uyini sotadi va uzoq joydan yangi uy qurib yoki sotib olib ikkinchi bir joyga ko'chadi. Natijada ilgaridan muqim yashab kelayotgan tub aholiga va yangi joyga moslashuv davrini o'tagach, tilida ham o'sha hudud dahasiga mansub paremalarni transformatsiyalaydi. Masalan, a.t.da *Bo'zchi belboqqa yolchimas* degan ibora bor, areal kesimda uning davomi sifatida *kulol - mo'ndiga//temirchi to'qaga* singari hunar atributiga qarab almashinib o'sha hududning jonli xalq tilida davomli tugallikka ega bo'ladi va nutqda matal tipiga o'tadi. Bu taxlit paremiologik birliklar xalq tilida ko'p uchraydi. *Devālni:η (ham) qulāyi: bār* barqaror birikmasi *De(u)vol tagida gapirma, //(\*)de(u)volning s(ch)ichqoni bor, s(ch)ichqonning qulog'(v)i bor* tarzida bir hududda

qo'llanilsa, (\*) *De(u)vor(l)ning qulog'i bor ko'rinishida xalq tili(adabiy)da qo'llaniladi.* Fors-tojik tilidan o'zlashgan ushbu "*Devor mush dorad, mush gush dorad*" maqolining asl jihatni buzilib talqin qilinadi. Uyning boshqa qismlarida "nega quloq yo'q?" degan mantiqiy xatolik bilan idrok qilinishi paremik kommunikatsiya jarayonida axborot almashinuvini buzadi. Buni kalkalash asosida yoki tarjima jarayonida transformatsiyaga uch rash natijasi sifatida izohlashimiz mumkin.

*Sheva axborotchilar ning o'zga hududga turmushga chiqishi;* Bo'yi yetgan qiz Angor tumanidan Jarqo'rg'on tumaniga kelin bo'lib tushganda u uyida ota-onasi, yaqinlaridan eshitib qulog'iga singigan o'zingdan o'pkala, o'zingdan ko'r sifatida baholanuvchi maqolning: **Ochqasang oqii:ni je, gülli-gülli qoqini je, Otagän bābāni:ŋ öti:ni: je** talqiniga duch keladi. Ushbu parema tanbeh, dakki berish ma'nosida kelib, u yashayotgan joyning aholi nutqida **sari ʒi:landi dümi:ni: je** variativ shakli ham mavjud.

*Do'sting kelsa, dolonda kut, dushman kelsa, ayvonda* maqoli tarkibiddagi "dolon" so'zi o'zbek shevalaridagi lakunlar birlik sifatida qayd etiladi. Lekin bu so'zni N.Raimnazarova O'zbek tilining izohli lug'atida fors tilidan o'zlashganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, ayrim so'zlarning etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak huddiki, o'zbek tiliga aloqador so'zday tilimizga o'mashgan: "kalla" so'zi "bosh" so'zi bilan bilan variandosh sifatida nutqimizda almashinib qo'llaniladi. O'zbek dialektal paremasidagi "Kalla yorilsa, kallapo'sh ostida" degan maqolidagi shu holatni ko'rish mumkin. "Kayping kallangda" degan paremasi tojiklardagi "Ixtiyor bo shumo" bilan teng semantikaga ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Зарбулмасал ва мақолҳои тоҷики. – Сталинобод, 1956. – Б. 51.
2. Исаべк Б. Қизиқарли она тили. – Тошкент: Akademnashr, 2020. – Б. 11-12.
3. Xolmonova Z., Nasriyeva D. O'zbek shevalaridagi lakunlar birliklar lug'ati. – Toshkent: "Bookmany print", 2022. – В. 35.
4. Raimnazarova N. O'zbek tilining izohli lug'atlarida shevaga oid so'zlarning berilishi: Filol. fanlari falsafa d-ri...diss. – Termiz, 2023. – Б. 29.
5. Source: <https://sinaps.uz/maqola/8353/>